

Date: 7th March-2026

**BACHADON NAYLARI O'TKAZUVCHANLIGINI BAHOLASHDAGI
GISTEROSALPINGOGRAFIYA ROLI**

Nishanova Yulduz Khatamovna, Irgasheva Marjona Anvarovna
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Uzbekistan, Tashkent

Annotatsiya: Ayollar bepushtligining asosiy sabablaridan biri bachadon naylarining o'tkazuvchanligi buzilishidir. Ushbu patologiya asosan reproduktiv yoshdagi, ya'ni 20-35 yosh oralig'idagi ayollarda ko'proq uchraydi [1]. Bachadon naylari o'tkazuvchanligini aniqlashda gisterosalpingografiya eng ko'p qo'llaniladigan rentgenologik tekshiruv usullaridan biri GSG yordamida bachadon bo'shligi va bachadon naylarining anatomik tuzilishi, ularning ochiq va yopiq holati aniqlanadi. [2]. Ushbu usul bepushtlik sabablarini aniqlashdava keyingi davolash taktikasini belgilashda muhim diagnostic ahamiyatga ega [3].

Kalit so'z: Bachadon naylari o'tkazuvchanligi, gisterosalpingografiya, rentgen tekshiruvi

Ishning maqsadi: Bachadon naylari o'tkazuvchanligini baholashda gisterosalpingografiya usulining diagnostik samaradorligini o'rganish

Material va metodlar: Tadqiqotga Toshkent davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasining ginekologiya bo'limida 2022–2024-yillar oralig'ida bepushtlik tashxisi bilan klinikaga murojaat qilgan 60 nafar ayol tekshirildi. Bemorlarning yoshi 20–40 yosh oralig'ida bo'lib, o'rtacha yosh $29 \pm 4,2$ yilni tashkil etdi. Tanlov mezonlariga ko'ra, 3 yildan 10 yilgacha homilador bo'lmagan, oldin bachadon naylarida jarrohlik amaliyoti o'tkazilmagan va kontrast moddaga allergiyasi bo'lmagan hamda 3 nuqtadan surtma olib natijalari yaxshi chiqqan ayollar qabul qilindi. Barcha bemorlarga hayz siklining 6–10-kunlarida gisterosalpingografiya tekshiruvi o'tkazildi. Tekshiruvda kontrast modda bachadon bo'shlig'iga yuborilib, rentgen apparati yordamida bachadon bo'shlig'i va bachadon naylarining ochiq yoki yopiq holati baholandi.

Natijalar. O'rganilgan 60 nafar ayol orasida 34 nafarida (56 %) bachadon naylarining o'tkazuvchanligi saqlangan, 18 nafarida (30 %) bir tomonlama (7 tasi chap 11 tasi o'ng) nay yopilishi, 8 nafarida (14 %) ikki tomonlama nay yopilishi aniqlandi. Bachadon naylari o'tkazuvchanligi buzilishi eng ko'p 25–30 yosh oralig'idagi ayollarda kuzatildi (14-15 nafar, 24 %). GSG tekshiruvidan so'ng bemorlarning 6–9 nafarida (10–15 %) bachadon naylarining funksional o'tkazuvchanligi yaxshilangan. Tadqiqotda bachadon bo'shligi yallig'lanishi bilan kasallangan bemorlar soni 13 nafarni tashkil etdi. Ulardan 10 tasi (76,9%) sinexiya bilan kasallangan. 3 tasi (23,1%) polip bilan yallig'lanish kuzatilgan.

Xulosa. Gisterosalpingografiya (GSG) bachadon naylari o'tkazuvchanligini baholashda samarali va yuqori diagnostik qiymatga ega bo'lgan usul hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, reproduktiv yoshdagi ayollarda (20–35 yosh) bachadon naylarining yopilishi bepushtlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. GSG yordamida nafaqat naylarning ochiq yoki yopiq ekanligi aniqlanadi, balki bachadon bo'shlig'i va



Date: 7th March-2026

naylarning anatomik tuzilishi ham baholanadi. Shu bilan birga, tekshiruv natijalari keyingi davolash strategiyasini to'g'ri belgilashga yordam beradi va ayrim bemorlarda funksional yaxshilanish imkoniyatini beradi.

Natijada, GSG reproduktiv yoshdagi ayollarda bepushtlikni aniqlash va individual davolash taktikasini tanlashda muhim diagnostik vosita sifatida tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World Health Organization (WHO). Infertility definitions and global prevalence data. Geneva: WHO; 2020.
2. American Society for Reproductive Medicine (ASRM). Diagnostic evaluation of infertility: a committee opinion. Fertility and Sterility. 2021.
3. European Society of Human Reproduction and Embryology (ESHRE). Guideline on the management of female infertility. 2022.
4. Simpson W.L., Beitia L.G., Mester J. Hysterosalpingography: a reemerging study. Radiographics. 2006;26(2):419–431.
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Ayollar bepushtligini tashxislash va davolash bo'yicha klinik tavsiyalar. Toshkent; 2021.

